

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR FAKULTETI

113 XTF GURUH TALABASI MADRAXIMOV ABDURAXMONNING

5522400 Kimyoviy texnologiyalar (qurilish materiallarining

(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

kimyoviy texnologiyasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

bakalavr darajasini olish uchun

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu: Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Ilmiy rahbar:

IMZONI TAYDIQLAYMAN
KADRLAR BOLIM BOSHCHISLIGI
ISCHANOV.F.A.
Urganch 2017 yil



1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
Kimyoviy texnologiyalar fakulteti (fakultet nomi)
"Kimyoviy texnologiyalar" kafedrası
(kafedra nomi)

Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning
laboratoriya tajriba reglamentini yaratish
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi: **MADRAXIMOV ABDURAXMON ABDURAXIMBOEVICH**

Rahbar: **TAISCHANOV FAXRIDDIN ATAJONOVICH**



Urganch shahri

2017-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA FAKULTETI

(fakultet nomi)

“KIMYOVIY TEXNOLOGIYA” KAFEDRASI

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Madraximov Abduraxmonga Universitet rektorining 31 dekabr 2016 yil «244-T» sonli buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun : Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan Ischanov.F.A. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Kirish, tanlangan mavzu bo'yicha jaxon adabiyotlarining va patentlarning qisqacha tahlili, ishning qisqacha mazmuni maqsad va vazifalari, tajriba-tatqiqotlar qismi, tajriba o'tkazish uchun uslub tanlash va uni asoslash, tajriba tavsifi, olingan natijalar xulosasi, olingan natijalarni ishlab chikarishga tadbiqu, olingan ilmiy natijalarning ko'rsatgichlari qismi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Men adabiyotlardan foydalanib chilpiq kaolining tarkibi va undagi boyitishda sodir bo'ladigan fizik kimyoviy jarayonlar va uni boyitishning sidiminotsiyon usulidan foydalanib tajriba tadqiqot ishlarimni boshladim. Keyinchalik tarkiblarni tanlab shamot, kaolin, luzga va ko'mirni tarkiblarga qo'shib massa tayorladim. Tayorlangan massamni 1150°C 1350°C gacha labarato'riya mufil pechida pishirdim. Pishirilgan namunalarni olovdan kirishish darajasi, suv shimuvchanligi, mexanik mustaxkamligini o'rganib chiqdim.
5. Bitiruv malakaviy ishga: texnologik sxema chizmasi chizildi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Malakaviy bitiruv ishi topshirig'i mavzuni va hajmini aniqlash	14.01.2017
2	Maxsus adabiyotlarni o'rganish, metodik va amaliy materiallari yig'ilishi	26.01.2017
3	Loyiha bo'yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish	09.02.2017
4	Tajriba ish (o'qish)larni tashkil qilish va o'tkazish sifati	18.02.2017
5	Tajriba-tadqiqotlar qismi	10.03.2017
6	Tajriba o'tkazish uchun uslub tanlash va uni asoslash	24.03.2017
7	Tajriba tavsifi	30.04.2017
8	Olingan natijalar xulosasi	10.05.2017
9	Olingan natijalarni ishla bchiqarishga tadbiqu	21.05.2017
10	BMI ini himoyaga tayyorlash	16.06.2017

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

ISCHANOV.F.A.

Bajaruvchi talaba:

Madraximov A.A.

2017 yil «14» iyun

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2017 yil tasdiqlandi

(dekabr «5»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

prof. Babayev Z.K.

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: **Madraximov Abduraxmon Abduraximboevich**

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Bitiruv malakaviy ish xajmi: _____ 12377 _____

Tushuntirish qismi: _____ 75 _____

Ilovalar soni: _____ 5 _____

Mavzuning dolzarbligi: Ilk bor Chilpiq kaolini asosida o'tga chidamli olovbardosh materiallar olish bo'yicha laboratoriya tajriba reglamentini yaratish vazifasi berildi. Madraximov Abduraxmon chilpiq kaolinining kimoviy tarkibini o'rganib uning tarkibidagi alyuminiy o'qsidini miqdorini xisoblab shamotli olovbardosh g'isht olishi mumkinligini takidlab o'tdi.

Shundan kelib chiqib olovbardosh g'ishtlarga xos bo'lgan olovdan kirishish suv shimuvchanligi va mustaxkamlik chegarasini aniqlab chiqishga erishildi.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishining bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. Talaba berilgan mavzu bo'yicha ya'ni chilpiq kaolini asosida olingan shamot, qishloq xo'jaligi chiqindisi bo'lmish luzga va ko'mir massasidan foydalanib ulardan massa tayorlab pechga joylashtirib xaroratni 1150°C, 1200°C, 1250°C, 1300°C, 1350°C olib borib kuydirilgan namunalarni olovdan kirishi miqdori, suv shimuvchanlik miqdori va mexanik mustaxkamligini o'rganish uchun laboratoriyada tajriba reglament ishini olib bordi.

Bitiruv ishining ijobiy tamonlar. Chilpiq kaolini asosida olingan shamot, qishloq xo'jaligi chiqindisi bo'lmish luzga va ko'mir xom asholari asosida shamotli olovbardosh g'isht ishlab chiqarish mumkinligini isbotlab berdi.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Madraximov Abduraxmonning bitiruv malakaviy ishi mazmuni, dolzarbligi, ilmiy

va amaliy ahamiyati jihatdan, bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi va u muvaffaqiyatli himoya qilinishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

ISCHANOV.F.A.

(f.i.sh.)

2017 yil « 14 » iyun



Urganch davlat universiteti Kimyoviy texnologiya fakulteti Kimyoviy texnologiyalar (qurilish materiallarining kimyoviy texnologiyasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Allamov Raxmatulloning

Bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Malakaviy ishning hajmi 12377 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 75 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 5 chizma

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Xozirgi kunda maxalliy xom ashyo asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: ishning «Kirish» va ilova qismi bitiruv malakaviy ishlarga qo'yiladigan talablar asosida to'ldirilgan. Kirish qismida Respublikamizda qurilish maxsulotlariga talab va maxalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish va unga oid qonun davlat andozalari qarorlar mavjud ilovalarda mavzuga oid bo'limlar aniq ko'rsatilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. ishda 18 ta ilmiy manbalar, shuningdek foydalanilgan internet manbalari keltirilgan. Madraximov Abduraxmon bitiruv malakaviy ishida fan va texnikaning innovatsion yutuqlaridan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan.


Malakaviy ishning «Kirish» va ilova qismi bitiruv malakaviy ishlarga qo'yiladigan talablar asosida to'ldirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv-malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi. Mavzuda yaratilishicha ishlab

chiqarilayotgan maxalliy xom ashyo asosida shamotli o'tga chidamli gisht ishlab chiqarish, tashish va korxonalarni joylashish o'rni temir yo'l va elektr energiyaga yaqinligi maxsulotni iqtisodiy jixatdan arzonroq bo'lishiga olib keladi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Ushbu ilmiy ishda maxalliy xom ashyo asosida shamotli o'tga chidamli gisht ishlab chiqarish foydali bo'ladi. Talaba tamonidan ishlab chiqarilgan shamotli o'tga chidamli g'isht o'zining mustaxkamligi uzoq muddatga chidamligi, o'tga chidamligi bilan o'ziga jalb qiladi. Talaba tajriba ishlarini texnologik laborato'riyada olib borilganligi o'z navbatida xar bir qilingan tajriba ishini yozib bordi. Shu asosda jadval, grafiklar chizdi.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda ayrim orfografik va imloviy kamchiliklar mavjud. Madraximov Abduraxmonning bitiruv malakaviy ishi hajmi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati jixatidan, bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi va u muvaffaqiyatli himoya qilinishi mumkin.

Taqrizchi:  Matkarimov A.M. - "Dilshod qurilish g'isht" MCHJ raxbari
(imzo) (mansabi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2017 yil « 14 » iyun

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Kimyoviy texnologiyalar fakulteti yo'nalishining bitiruvchisi Madraximov Abduraxmonning Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning « 22 » 2017 yil « iyun » dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi O'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	8
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	21
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	8
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	7
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	8
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	7
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	8
Jami:			71

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Urganch shahrida ishlatilgan motor moylari regeneratsiya qilishning laboratoriya reglamentini yaratish mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 4 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va « 71 » deb baholansin.

2. _____
DAK

rasi: Raimov A.M.


A'zolari: Qurambayev Sh.B.

Jemaniyazov M.Z. Bahayev Z.K.

2017 yil « 22 » iyun

Urganch davlat universiteti Kimyoviy texnologiyalar fakulteti Kimyoviy texnologiyalar kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchi  Madraximov Abduraxmon
(ning ismi-sharifi)

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Ilmiy rahbar

 ISCHANOV.F.A.


(maslahatchi) ning ismi-sharifi

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil « ____ » _____ da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib _____ Matkarimov A.M.-"Dilshod qurilish g'isht" MCHJ raxbari tayinlandi.




Kafedra mudiri:

 prof. Babayev Z.K.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

 dots .Quramboev SH.R

Urganch davlat universiteti Kimyoviy texnologiyalar fakulteti Kimyoviy texnologiyalar kafedrası

Kimyoviy texnologiyalar (qurilish materiallarining kimyoviy texnologiyasi bo'yicha) yo'nalishi ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman fakultet

dekani dots. Quramboyev SH.R


"14" iyun 2017 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Madraximov Abduraxmon Abduraximboevich

Ishning mavzusi: : Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

1. «31»dekabr 2016 yil universitet rektorining 244-T sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "14" iyun 2017 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»

2. I.R. Bayjanov Chilpiq kaolining boyitish texnologiyasini o'rganish.

3. *H.M. Бобкова, Е.М Дятлова, Т.С Куницкая.* Общая технология силикатов.-Минск: Вншшая школа, 1987.-288 с.

Общая технология силикатов /Под общ, ред. Пашенко А.А.-Киев: Вншшая школа, 1983.— 408 с.

Ю.М. Бутт, Г.Н. Дудеров, М.А Матвеев. Общая техно-логия силикатов.-М: Стройиздат, 1976.- 599 с.

Л.Г. Мельниченко, Б.П. Сахаров, Н.А. Сидоров. Техноло-гия силикатов /Под ред. Матвеева М.А.—М.гВншшая шкош, 1969.-360 с.

- М.В. Артамонова, А.И. Рабухин, В.Г. Савельев.* Практикум по обвдей технологии силикатов. М.:Стройиздат, 1996.-279 с.
- Х. Тейлор.* Химия цемента. М.: Мир, 1996.-560 с.
- Г.И. Клюковский, Л.А. Мануйлов.* Лабораторный пракга-кум по обвдей технологии силикатов.-М.:Стройиздѣт, 1975.-263 с.
- И. Носиров.* Материалшунослик. -Т.:Уқитувчи, 1993.-232 бет.
- Л.И. Сулименко, И.Н. Тихомирова.* Основи технологии тугоплавких неметаллических силикатних материалов. М.: РХТУ им. Менделеева Д.И., 2000.-248с.
- Химическая технология керамики и огнеупоров /Под обгц. ред. *П.П. Будникова и Д.Н. Полубояринова-* М.: Стройиз-дат, 1972.-552 с.
- В.Л. Балкевич* Техническая керамика.-М.: Стройиздат, 1984.-256 с.
- Г.В. Нагибин* Основи технологий строительных мате-рилов.-М.: Вмсшая школа, 1979. - 350 с.
- А.А. Исматов.* Сунгий тошлар. -Т.: Фан, 1980.-56 б.

А.А. Исматов, М.Т.Шерназарова Т.Н. Якубов, Опенвая керамика с использованием палеоглин и лессовных пород. —Т.: Фан, 1993.- 118 с.

18. *АА.Исматов.* Гилдан чиннига.- Т.: Фан, 198.6.— 60 б.

4. *Ishning maqsadi:* Maxalliy xom ashyolar asosida shamo'tli o'tga chidamli g'isht olishda chilpiq kaolini asosida olingan shamot, qishloq xo'jaligi chiqindisi bo'lmish luzga va ko'mir massasidan foydalanib ulardan massa tayorlab pechga joylashtirib xaroratni 1150°C, 1200°C, 1250°C, 1300°C, 1350°C olib borib kuydirilgan namunalarni olovdan kirishi miqdori, suv shimuvchanlik miqdori va mexanik mustaxkamligini o'rganish uchun labarotoriyada tajriba reglament ishini olib bordildi.

5.*Chizma materiallar ro'yxati:* texnologik sxema, shamotli o'tga chidamli g'ish olish borasida izlanishlar natijalari, olovdan kirishi, suvga chidamligi va mustaxkamligini aniqlashni o'rganish natijalari, olovdan kirishi, suvga chidamligi


va mustaxkamligini darajasini o'rganish natijalari kabi bog'liqliklarini grafiklari keltirilgan.

6. Maslahatchilar: _____

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Adabiyotlar sharhi	ISCHANOV.F.A.	24.01.2017	4.02.2017
Ishning qisqacha mazmuni maqsad va vazifalari	ISCHANOV.F.A.	12.03.2017	22.03.2017
Tajriba tadqiqot qismi	ISCHANOV.F.A.	29.04.2017	10.05.2017
Iqtisod qism	Ischanov F.A.	20.05.2017	10.06.2017

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: ___ Matkarimov A.M.-
"Dilshod qurilish g'isht" MCHJ raxbari

7. Ilmiy rahbar:  ISCHANOV.F.A.

BMI bajaruvchi talaba:  Madraximov A.A.

Kafedra mudiri:  prof. Babayev Z.K.

MUNDARIJA

I.	Kirish.....	2
II.	Tanlangan mavzu bo'yicha jaxon adabiyotlarining va patentlarning qisqacha tahlili.....	4
III.	Ishning qisqacha mazmuni maqsad va vazifalari.....	37
IV.	Tajriba-tatqiqotlar qismi.	40
4.1.	Tajriba o'tkazish uchun uslub tanlash va uni asoslash	41
4.2.	Tajriba tavsifi.	42
4.3.	Olingan natijalar xulosasi.....	43
4.4.	Olingan natijalarni ishlab chikarishga tadbiri	50
V.	Olingan ilmiy natijalarning iqtisodiy ko'rsatgichlari qismi.....	58
VI.	Xulosa.....	72
VII.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	74

I. KIRISH

Mavzuning dolzarbligi – Respublikamizdagi mavjud metallurgiya kombinatlarini, qurulish matareallari ishlab chiqaradigan korxonalarni shamotli o'tga chidamli g'isht bilan tamirlash. Bu masala nihoyatda qiyin bo'lib buning uchun mavjud bo'lgan kaolin zaxiralarining keramik-texnologik natijalarini o'rganib chiqish lozim. Men o'z malakaviy bitiruv ishimda Chilpik kaolini tarkibini [2] adabiyotidan foydalanib undagi malumotlarni qabul qildim. Bu ishda chinni ishlab chiqarishdagi Chilpik kaolinini keramik texnologik natijalarini o'rgangan. Shu natijalar chiqmagunucha Chilpik kaolinini faqatgina zaxirasi o'rganilgan, biroq keramik texnologik jihatlari o'rganilmagan edi. Faqatgina O'zbekistonda mavjud bo'lgan Angren kaolinini yaxshilab o'rganilgan edi holos.

Dolzarb vazifani bajarishim uchun men quyidagi ishlarni amalga oshirishim kerak:

1. Chilpik kaolini asosida shamot pishirishim kerak.
2. Pishgan shamotni kaolin bilan aralashtirib massa tayorlashim kerak.
3. Laboratoriya mufil pechida namunalarni pishirishim kerak.
4. Pishgan namunalarni olovdan kirishish miqdori, suv shimuvchanlik miqdori va mexanik mustaxkamlik darajasini o'rganib chiqishim kerak.

Men keying ishlarimda yani magistrada o'qishimni davom qildirib bitiruv malakaviy ishimni shu mavzuga mos keladigan qilib davom qildirish niyatim bor. Dastlab chilpik kaolinini olovbardoshligini, yuqori bosimdagi olovbardoshligini o'rganib chiqishni o'z oldimga vazifa qilib qo'yganman.

Respublikamizda sanoat korxonalarini rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish borasida ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash xalqaro sifat andozalariga o'tish bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirish, tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Belgilangan vazifalar orasida respublikamizda hayot sifatini tubdan yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish prinsiplar muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Buning uchun

ishlab chiqarish faoliyatini korxonalarni modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtirilgan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishli [1]. Mustaqillikka erishganimizdan keyin hukumatimiz tamonidan bir qator qarorlar chiqib Respublikamizda mavjud bo'lgan foydali qazilma konlarini qaytadan o'rganib chiqib bir qator qarorlar va farmoishlar chiqarildi va qabul qilindi. Mavjud bo'lgan foydali qazilma konlaridan unumli foydalanish dolzarbligidan kelib chiqqan holda menga " Mahalliy hom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish" mavzusida topshiriq berildi.

Mening bitiruv malakaviy ishimning maqsadi va vazifasi: Mahalliy hom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning laboratoriya tajriba reglamentini yaratishdan iborat.

Vazifani bajarishim uchun men quyidagi ishlarni amalga oshirishim kerak:

Chilpik kaolini asosida shamot pishirishim kerak. Pishgan shamotni kaolin bilan aralashtirib massa tayorlashim kerak. Laboratoriya mufil pechida namunalarni pishirishim kerak. Pishgan namunalarni olovdan kirishish miqdori, suv shimuvchanlik miqdori va mexanik mustaxkamlik darajasini o'rganib chiqishim kerak.

Men keying ishlarimda yani magistrada o'qishimni davom qildirib bitiruv malakaviy ishimni shu mavzuga mos keladigan qilib davom qildirish niyatim bor. Dastlab chilpik kaolinini olovbardoshligini, yuqori bosimdagi olovbardoshligini o'rganib chiqishni o'z oldimga vazifa qilib qo'yganman.

Bu vazifani amalgam oshirishim uchun, men mahalliy xom-ashyolar asosida o'tga chidamli materiallar olishning turlari ,kimyoviy tarkiblari qoliplash jarayoni issiqlikga chidash miqdorlarini aniqlash mustahkamligini yo'qotmaslini o'rganishni vazifa qilib qo'ydim.

II. TANLANGAN MAVZU BO'YICHA JAXON ADABIYOTLARINING VA PATENTLARINING QISQACHA TAXLILI

Olovbardosh materiallar ishlab chiqarish

Olovbardosh toshlarning yaratilishi. Cho'yon va po'lat ishlab chiqarish, qolaversa ularni eritish hajmi og'ir sanoatning qudratini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. Lekin metalurgiya sohasida erishilgan ulkan yutuqlarni texnik vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. Masalan, metal eritadigan pechni o'lyaylik. Yuzaki qarashda u go'yo oddiy g'ishtdan qurilganday ko'rinadi. Aslida unga ishlatilgan g'isht oddiy g'isht emas. Agar bunday pechgga oddiy g'isht ishlatilsa, metal eriydigan temperature ta'sirida pechning devorlari butunlay erib ketgan bo'lar edi. Vaholanki, ular juda yuksak temperaturaga ham bardosh beradi.

Xo'sh, metal eritiladigan pechlarning devoriga qanday g'isht ishlatilgan? Ularni tabiatning o'zi yaratganmi yoki ular inson mehnati, aql-zakovati va ijodining mahsulimi?

Yuksak temperature va erigan metal ta'sirida emirilmaydigan, o'tda yonmaydigan, suvda zanglamaydigan o'ta pishiq sun'iy toshlar zukko olimlarimiz mehnati o'laroq asrimizda yaratilgan keramika mahsulotlari sirasiga kiradi.

Granit, oxaktosh, qumtosh olovbardosh tabiy materialdir. Tosh davrida inson olovbardosh tabiy materiallardan o'choq va pechkalar qurib, turarjoylarni issitgan,

taom tayyorlagan. Qadim zamonlarda tabiiy toshlardan qurilgan chiroyli oromgoh-qasrlar, obidalar, yodgorliklar va hokozolar bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan. Xullas, inson ko'p asrlardan buyon shunday noyob toshlarga katta mahorat bilan sayqal berib, nafis bezaklar, naqshlar solib, tabiatning jozibali obidasi, yodgorligi sifatda avloddan avlodga meros qoldirmoqda. Qadimda Xitoyda olovbardosh toshdan keng ko'lamda va turli maqsadlarda foydalanish yahshi yo'lga qo'yilgan. Masalan, eramizdan uch ming yil muqaddam xitoylar rudadan ushbu materiallar vositasida qimmatbaho moddalarni simob ishtirokida qotishma holida ajratib olish usulini topganlar va ular yordamida ba'zi yuqumli kasalliklarni davolaganlar.

Hozirgi Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Eron xududlarida O'rta asirlarda yashagan xalqlar tuproqqa turli qo'shimchalar aralashtirib olovbardosh materiallarning eng oddiy turlarini yaratganlar. Qadimgi kimyogarlar, ya'ni ilmi sim'yo namoyondalari ana shunday materiallardan yasalgan va mahsus sir bilan qoplangan ko'zacha va idishlarda oddiy ma'ddalarni qizdirib, ularni kumush va oltinga aylatirishga uringanlar. Ularning simobdan oltin olish borasidagi urinishlari zoe ketgan bo'lsada, o'tkazilgan tajribalar simob kabi moddalarning kimyoviy tarkibi va xossalarini aniqlashga yordam bergan, ruda tarkibidagi oltin va kumushni simob vositasida ajratib olish mumkin ekanligini ko'rsatgan. O'sha davrda g'alaba ramzi hisoblangan va diniy bayramlarda bo'yoq sifatida ishlatilgan, kosmetika va farmaseftika ehtiyojlari uchun foydalanilgan mashxur qizil bo'yoq ham kinovar mineralidan yoki sun'iy simob sulfiddan ana shunday olovbardosh ko'zalarda eritib olingan va saqlangan.

XII asirning ohirlarida Chingizhonning xarbiy yurishlari vaqtida bu o'lkalar axolisi qirib tashlanishi oqibatida qadimgi kulol-kimyogarlarning olovbardosh maxsulot tayyorlash usullari deyarli unitilib ketgan.

Mis bilan qalay qotishmasidan iborat bronzaning paydo bo'lishi kulolchilik bilan degrezchilik kasbini birlashtirdi. Natijada tabiiy tosh va gilning mahsus turlari asosida sun'iy g'isht, icham ko'zalar tayyorlash usuli vujudga keldi.

Olovbardosh dastlabki sun'iy maxsulot alyumosilikatli va kremnezyomli g'ishdan iborat. Bunday g'isht quyish uchun soztuproqni kuydirib xosil qilingan olovbardosh loy, ya'ni shamot bilan qum juda qo'l keladi. Tarkibida alyuminiy oksidi ko'p bo'lgan kuydirilmagan gilga kuydirilgan kaolin yoki shamot aralashtirib qorilgan loydan quyilgan g'ishtni mahsus pechda 1350-1500°C da pishirish yo'li bilan yarimnordon, shamotli va yuksak glinozemli g'ishtar olish mumkin. Qum suyuq oxakda qorilib, shu qarishmadan quyilgan g'isht pishirilsa, dinas yoki kvartslı g'isht xosil bo'ladi. Bunday g'ishtlarni quyish oson va arzonga tushadi. 1580-1750°C ga bemalol chidaydi. Ular suvda zanglamaydi, kislotada erimaydi (1-jadval), bir necha yilgacha o'z hususiyatlarini yo'qotmaydi.

Olovbardosh alyumosilikat g'ishtlarning hossalari massa tarkibiga kiruvchi alyuminiy (III) oksidning miqdoriga bog'liq. Tarkibidagi oksid miqdori ortgan sari g'isht ko'rsatkichlarining xam ortishi 1- jadvaldan yaqqol ko'rinib turibdi.

Og'ir sanoatning ildam rivoji metallarning yangi, mustaxkam turini yaratishni taqozo etadi, bu esa o'z navbatida, o'ta chidamli, humdonbop materiallarni toppish zaruriyatini tug'diradi. Davr talabi bilan MDX, Avstriya, AQSH, Chehslovakiya, Angliya va Yaponiya olim va mutahasislari xamkorlikda o'tga chidamli yangi maxsulotlar-magnezitli, hromitli va tsirkoniyli g'isht va bloklar quyish usulini ishlab chiqdilar. Shu usulda magnezit, dolomite, forsterit, shpinel, hromit va sun'iy birikmalarasosida tayyorlangan materiallar yuqori

1-jadval

Shamotli g'ishtlarining olovbardoshlik ko'rsatkichlari

G'ishtning turi	Al ₂ O ₂ miqdori, %	Pishirish temperaturasi, °C	Issiqqa chidamliligi °C	Qo'shilgan eritgich miqdori %	Deformatsiy alanish temperatura si, °C
Kaolinli shamot	40-44	1450-1500	1750-1770	2,5-3	1500

Soztuproqli shamot	38-40	1350-1420	1710-1750	5-6	1400
Andaluzitli	57	1400-1500	1750 dan ortiq	2,7	1450
Silemanitli disten	65	1500-1550	1750 dan ortiq	3,5	1570
Disperli disten	68	1300-1550	1750 dan ortiq	3,5	1500
Mullitli disten	73	1550-1650	1750 dan ortiq	3,5	1580

temperature ta'siriga chidamliligi jihatdan boshqalardan ajralib turadi. Forsteritli g'ishtning 1750°C dan yuqorida erishi va 1 sm² yuzasining 500 kg gacha kuch ta'sirida siqilishga bardosh bera olishi uning yuksak darajadagi pishiqligidan dalolatdir.

Quyida biz korund fazali olovbardosh buyumlarning hassalarini keltiramiz

Tarkibi shamotga to'g'ri keluvchi olovbardosh materiallarning hossalari

Xossalar	Ko'rsatkichlar
Al ₂ O ₂ miqdori, %.....	25,5-35,5
Zaxiraviy zichligi, g/sm ¹	3-85-3,9
Xaqiqiy zichligi, g/sm ¹	3,99-4,0
G'ovakliligi, %	
zaxiraviy.....	0,1 dan kam
xaqiqiy.....	3-25
Mustahkamlik chegarasi, g/sm ²	
siqilishga chidamliligi	150-250
Issqlik o'tkazuvchanlik koeffisenti, kkal/m s,grad:	

100 °C da.....	25
1000 °C da.....	5
O'tga chidamliligi, °C.....	1650
Issiqlikdan kengayish koeffitsenti, 20-1200 °C oralig'ida.....	8,5-10 ⁶
2 kg/sm ² yuk ta'sirida defermatsiyalanishining boshlang'ich temperaturasi, °C.....	1600

Bas shunday ekan, aytib o'tilgan olovbardosh maxsulotlar tayorlanadigan homashyo Mustaqil Davlatlar Xamdo'sligi mamlakatida ko'pmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javobni quyida keltirilgan misol orqali bersa bo'ladi. Masalan, Ural va Sibirda magniyda g'isht tayyorlash uchun kerak bo'ladigan magnezit qazib olinadigan konlar bor. Chelyabinsk oblastidagi Satka konidan tarkibida 92,5% magniy korbanat bo'gan, Krasnoyarsk o'kasidagi Talsk konidan esa tarkibida magniy korbanat 95% dan ortiq bo'lgan mineral qazib olinadi. Bu konlardan qazib olinadigan minerallar tarkibida oz miqdorda bo'lsa ham qum, glinozyom, kaltsiy oksidi bor.

Tabiatda sof xromitning juda katta konlari borligi ham ma'lum. Masalan, Kozog'istondagi va Uroldagi konlardan qazib olinayotgan xromit MDX ning va ayrim chet el mamalakatlarining xromga bo'lgan extiyojini to'la qondirmoqda.

Prosterit g'isht tayyorlanadigan hom ashyo olivinit Kola yarimorolidagi va Kavkazdagi konlardan, dunit Ukrainaning o'rta va shimoliy rayonlardagi, Sverdlovsk oblastining Nijniy Tagil rayonidagi konlardan, talk esa Urol, Ukraina va Sharqiy Sibirdagi konlardan qazib olinadi.



Sirkonining asosoy va yirik konlari Braziliya hududidafir. MDX da Tsirkon Evdalit mineralidan olinadi. Keying vaqtlarda olib borilgan geologik va minerologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, MDX hududida ham Nefelin-sienit orasida sof birlamchi Tsirkon qavatlari uchramoqda.


Olovbardosh materiallarning oksidli, karbonli kislorodsiz turlari ham yaratiladi. Ularni magniy, toriy, gafni, berilli, alyuminiy, uran kabi oksidlar asosida olish mumkin. Agar magniy va gafniy oksidlarining suyulish nuqtasi 1825°C va

2900°C bo'lsa, toriy oksidla g'ishtlar 3200°C ga bardosh bera oladi. Toshko'mir koksi yohud grafitdan 1100-1450°C da kuydirib tayyorlangan karbonli g'isht, blok va detallar 3700°C ga, suv va kislota ta'siriga chidamliligi, donna toshqoliga interligi, elektr tokini yaxshi o'tkazish kabi hususiyatlari bilan yuqorida aytib o'tilgan materiallardan ajralib turadi. Kislorodsiz karbit, nitrit, barit, silitsit, o'ta yuqori temperaturadagina erishi, o'ta qattiqligi, shuningdek, o'ziga hos elektr, magnit va kimyoviy hossalari bilan farq qiladi. Masalan, titanli karbitning qattiqligi Moos darajasi bo'yicha 9;2-9;5 bir kvadrat santimetr yuzasining siqilishiga chidamliligi 22500 kg. borli nitrit dielektrik bo'lib erish temperaturasi 2350°C. tsirkonli borit issiqlikka chidamliligi va qaytaruvchi muhitga o'ta turg'unligi bilan ajralib turadi. Molibdenli silitsitning elektr qarshili kam, cho'zilishga chidamliligi esa bir kvadrat sm yuzaga hisoblanganda 6000 kg.

Xulosa qilib aytganda Olovbardosh maxsulotlar turi, homashyosi, xossalari va imkoniyatlari jihatdan odatdagi keramika buyumlardan farq qiladi. Ular oddiy g'isht, spool va chinni buyumlardan farqli yuqori temperaturada o'z hossasini o'zgartirmaydi. Ularga xatto erigan metal, shlag, shisha, sement va boshqa kimyoviy birikmalar ham ta'sir etmaydi. Olovbardosh maxsulotlar bazan issiqlikni yaxshi o'tkazadi, bazan esa aksincha, issiqlikni saqlovchi vazifasini o'taydi shu jihatdan tabiatdagi tabiiy yoki suniy material ularning o'rnini bosa olmaydi. [15]

Olovbardosh g'isht tayyorlash. Olovbardosh g'ishtning ishlab chiqarish texnologik tizimlari o'ta murakkab va xilma –xildir. Ko'pincha, xomashyo turi va olinadigan maxsulot sifatiga qo'yilgan talablar asosida tizim o'zgarib boradi.






1-rasm. Plostik presslash usulida shamot g'ishti olishning texnologik sxemasi.


Olovbardosh maxsulotlar ichida eng ko'p ishlab chiqariladigani shamot va dinas g'ishtlardir. Quyida biz plastik presslash usulida shamot g'ishti va uning engil vazinli turini olish xamda $150\text{kg}/\text{sm}^2$ bosimda presslash yo'li bilan dinas ishlab chiqarishning eng soda texnologik tizimlarini keltiramiz

Olovbardosh shamot maxsulotlarining yana bir turi mavjud. Bunday materiallar engil issiqlik saqlovchi shamot materiallari nomi bilan ataladi. Quyida shunday material va buyumlar ishlab chiqarishning texnologik tizimi keltiriladi.


Solishtirish maqsadida presslash yo'li bilan ishlab chiqariluvchi dinas g'ishtining texnologik tizimi quyida beriladi.


MDXda ishlab chiqariladigan jami olovbardosh maxsulotlarning 75%i shamot materiallari asosida tayyorlanadi; ular tarkibidagi alyuminiy (III) oksidining miqdori





2-rasm. Engil vazinli shmot g'ishti tayyorlashning texnologik tizimi.





3- rasm. 150 kg/sm² bosimda presslash yuli bilan dinas g'ishti ishlab chiqarishning texnologik sxemasi.

28—45 % ga teng. Olovbardosh yarimnordon va kaolinli materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi shamot g'ishti tayyorlash texnologiyasidan farq qilmaydi.

SHamot buyumlari xomashyosi sifatida ikki komponentdan: 1580°S da erimaydigan soztuproq yoki kaolin (bog'lovchi modda) va oddiy shamot (suvsizlantirilgan asos) dan foydalaniladi. Odatda oddiy shamot sifatida o'tda toblanib, dispers qolga keltirilgan gil yoki qumtuproq ishlatiladi. Bu komponentlarning o'zaro nisbati foiz xisobida olganda 40 va 60, 50 va 50, 60 va 40 atrofida.

SHamot buyumlari, asosan, namlik darajasi 20 % bulgan xamirsimon, yopishqoq qorishmani plastik presslab yaratiladi. Ammo qozir ularni namlik darajasi 9 %

bo'lgan kukunsimon aralashmani yarimquruq xolda presslab olish mumkinligi xam aniqlangan va ishlab chiqarishga joriy etilgan.

MDX mamlakatlarida yarimquruq presslash sxemasi bo'yicha shamotli buyumlar tayyorlash texnologiyasi birinchi marta 1930—1931 yillarda Voronej viloyatining Semiluki shaxridagi va Novgorod viloyatining Borovichi shaxridagi olovbardosh buyumlar ishlab chiqarish kombinatlarida joriy qilindi. Xozirgi kunda zavodlarimizda plastik usul bilan bir qatorda yarimquruq presslash sxemasidan foydalanib, pishiq, temperaturaning uzgarishiga bardosh beradigan, kurinishi, ulchamlari va mikrostrukturasi bir xil bo'lgan yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarilmoqda.


Yarimquruq xolda presslash usuli qo'llanganda qorishmaning namlik darajasi past bo'lishi lozim. SHunga ko'ra, soztuproq bilan oddiy shamotning yirik-maydaligi va aralashish darajasi muxim ahamiyatga ega. Qorishma namlik darajasining kam bulishligi, uni presslash jarayonida yuqori bosim bilan ishlashni talab qiladi. Odatda, maxsulot (jumladan, g'isht) PK-630, SM-143 tipidagi maxsus presslarda 200 kg/sm^2 va bundan xam yuqori bosimda presslanadi. Bunday presslarda bir yo'la to'rt dona g'isht, bino barin, bir soat mobaynida 8 tonna qorishmadan 2400 dona g'isht quyish mumkin.

SHamot buyumlarini yarimquruq xolda presslash sxemasi 9-rasmda keltirilgan.

Plastik presslash usulida (1- va 2- rasmlar) suv va yoqilg'i ko'proq sarf bo'ladi; bu usulda g'isht ishlab chiqarish texnologik jarayoni quyidagi o'n to'rt operatsiyani o'z ichiga oladi: 1) soztuproq, kaolin, qumtuproq va oddiy shamotni maydalash; 2) soztuproq yoki kaolin quritish; 3) soztuproq va boshqa komponentni tuyish; 4) elash; 5) tortish; 6) komponentlarni quruqxolida aralastirish; 7) namlash va qorish; 8) qorishmani pishitish va uzunchoq zuvala qilish; 9) zuvalani kesib bulaklash; 10) xom g'ishtni qisman qayta presslash; 11) quritish; 12) pishirish; 13) g'ishtlarni sortlarga ajratish va 14) tayyor g'ishtlarni omborga joylash.

Qorishmani pishitish va zuvala qilish texnologik jarayonining eng muxim operaiiyalaridan xisoblanadi; bu ishlar tasmali yotiq presslarda 10 kg/sm^2 gacha

bosim tasirida amalga oshiriladi. Pishirilgan uzunchoq zuvala (brus) kerakli ulchamdagi bo'laklarga kesilib, ular yana pressga jo'natiladi. Bu qo'shimcha operatsiya 30—40 kg/sm² bosim tasirida amalga oshiriladi. Pressdan chiqqan xom g'ishtning sirti tekis, burchaklari tug'ri buladi.



Sarxillash



Tayyor maxsulot omboriga jo'natish

4-rasm. Yarimquruq usulda presslash orqali shamot buyumlari ishlab chiqarish texnologik sxemasi.

Oddiy shakildagi buyumlar yarimquruq xolda preslanadi, murakkab shakildagi buyumlar uchun plastik presslash usuli qo'llaniladi.

Qoliplangan g'isht (buyum)ni pishirish xam murakkab va muxim operatsiya xisoblanadi. Qoliplangan (preslangan) buyumlar uzunligi 120 m, eni 3 m va balandligi 2,1 m bo'lgan tunel pechlarida yuqori temperaturada pishiriladi. Bunday pechga bir yo'la uzunligi 3 m va og'irligi 14 t keladigan 40 ta vagon jo bo'ladi. Buyumni 1350-1400°C da 40 saot davomida pishiriladi.

Pishirish jarayonida (100-600°C da) buyumning tarkibidagi mexanik, gigroskopik va kimyoviy suv bug'lanib, o'zida 1000°C va undan yuqori temperaturada uch molekula alyuminiy (III) oksid va ikki molekula kremniy (IV) oksid saqlagan mullit minerali xosil bo'ladi. Mullit olovbardosh mineraldir. Olovbardosh mullit mineralidan yasalgan maxsulotlar ajoyib xususiyatlarga ega.

Tunnel pechlari korxonalarining eng qimmatbaxo uskunasi xisoblanadi. SHunday bir agregatda sutkasiga 350 tonna, yiliga esa 130 ming tonnagacha olovbardosh sifatli maxsulot olish mumkin.

Dinas g'ishti ishlab chiqarish miqdor jixatidan dunyoda shamotli g'ishtdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Odatda, bunday g'ishtlar uchun xomashyo sifatida tarkibida 95 % gacha kremniy (IV) oksid bo'lgan tabiiy kvartsitdan foydalaniladi. Kvartsitlar va ulardan tayyorlangan maxsulotlar kimyoviy moddalar tasiriga chidamli bo'lib, yonmaydi va o'zida nam saqlamaydi.

Dinas g'ishti tarkibiga kiradigan komponentlardan yana biri, bog'lovchi modda va plastifikator-sulvfatli spirt bardasi, oxak suti va boshqalardir. Qorishmaga 0,2— 2,5 % oxak suti va undan kamroq miqdorda sulvfatli-spirt bardasi

qo'shiladi. Bundan maqsad qorishmaning pishish temperaturasini pasaytirish va uning elastikligini oshirishdir. Plastifikator molekulalari o'zaro tasirlashishi natijasida kvartsit makromolekulalari orasiga kirib, oraliqdagi bo'shliqlarni kengaytiradilar va kvartsit zarrachalarini o'rab oladilar. SHu tufayli kvartsit zarrachalarining o'zaro tortishuv kuchi kamayib, ular bir-birlariga nisbatan tez va engil xarakatlana boshlaydilar.

Qorishmaga qo'shiladigan bog'lovchi modda va plastifikatorlarning turini va miqdorini to'g'ri tanlashning katta ahamiyati bor. Chunki buyumning fizik-mexanik xossalari va emirilmasligi (pishiqligi) ko'p jihatdan ana shunga bog'liq. Bog'lovchi modda va plastifikatorlar kam uchuvchan, erish temperaturasi past, xidsiz va kvartsitga yaxshi aralashadigan bo'lishi kerak.

Dinas g'ishti ishlab chiqarish, asosan, quyidagi bosqichlardan iborat: 1) kvartsit, kvarts yoki qumtuproqni kondan qazib olish; 2) xomashyoni korxonada skladiga tashish; 3) kvartsit yoki kvartsni maydalash; 4) xomashyoni tuyish; 5) kvartsit kukunini elab, yirik-maydaligi jihatidan fraksiyalarga ajratish; 6) asosiy va qo'shimcha komponentlarni dozalash; 7) komponentlarni aralashtirish (qorishma tayyorlash); 8) shixtani presslash; 9) xom dinas g'ishtni quritish; 10) xom g'ishtni pishirish; 11) pishgan g'ishtni sortlarga ajratish; 12) tayyor maxsulotni omborga joylash. .

Xom g'ishtni pishirish juda masuliyatli jarayon bo'lib, bu maqsadda tunnel, gaz kamerali, aylanma va boshqa pechlardan foydalaniladi. Xom g'isht 1400—1450°C da 120—455 soat mobaynida pishiriladi.

Pechda temperatura ortgan sari, g'isht tarkibidagi qoldiq nam bug'lanadi, organik moddalar kuyadi va kremniy (IV) oksidi bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tadi. Natijada tridimit minerallarning nina, prizma va nayzasimon kristallari xosil bo'ladi. Olingan maxsulotning fizik-mexanik ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, ammo polimorf turlarning ko'pligi sababli issiqlikni keskin o'zgarishi oqibatida u chidamsiz bo'lishi mumkin.

Dinas g'ishti tayyorlash uchun murakkab mashina va uskunalar talab qilinmaydi, ammo uni pishirish jarayoni uzoq davom etishi va ish unumi past bo'lishi sababli bunday g'ishtlar bir oz qimmatga tushadi.

Olovbardosh uglerodli va oksidli g'isht tayyorlash usuli shamot va dinas g'ishti tayyorlash usulidan farq qiladi. Ular quruq presslash usulida tayyorlanadi. Masalan, tarkibida alyuminiy (III) oksid ko'p bo'lgan korund buyumi tayyorlash uchun xom ashyo, yani alfa-gliozyom moddasi 1450—1600°C da kuydirilishi, so'ngra zarralarining yirikligi 2—3 mikronga teng bo'lguncha tuyilishi lozim. Ana shu kukunga ozgina parafin, smola, elim yoki polimer qushiladi; shu aralashma quruq presslash usulida qoliplanib tegishli shaklga kiritiladi. Xom maxsulot maxsus pechlarda 1700°C da pishiriladi.

Agar korunddan o'ta qalin devorchali yoki murakkab shaklli buyum yasaladigan bo'lsa, u xolda kuydirilgan alfagliozyom kukunidan namlik darajasi 40—50 % bo'lgan shliker tayyorlanishi kerak. SHliker gips yoki gildan tayyorlangan qoliplarga quyiladi, qoliplardan olingach, yuqori temperaturada pishiriladi.

Berilliy oksidi asosida olovbardosh buyumlar tayyorlashda tarkibida berilliy (II) oksid ko'p bo'lgan tabiiy berill minerali ishlatiladi.

Keyingi yillarda olovbardosh materiallarning yana bir turi yaratildi. Bu ancha engil, issiqlik-izolyatsiya materialidir (7- rasm). Yangi material o'tga chidamliligi va kimyoviy tarkibi jixatidan shamotli, kaolinli va yuqori gliozyomli turlarga ajraladi.

Bu materialdan tayyorlanadigan buyumlarni o'ta engil, g'ovak yoki ko'piksimon xolga keltirishning bir necha usuli — fizikaviy, kimyoviy va mexanikaviy usullari bor. Olovbardosh buyum tayyorlanadigan qorishma (aralashma) ga qizdirganda parchalanib gaz xosil qiladigan birorta organik yoki mineral moddani qo'shish ana shu usullardan biridir. Kanifol sovuni, saponin, qirtish elimi, dolomit, sulvfat kislota, gips yoki alyuminiy kukuni qushilgan aralashma usti yopiq qoliplarda qizdirilganda, ajralib chiqayotgan pufakchalar qorishmani ko'piklatib yuboradi. Natijada buyum g'ovak bo'lib qoladi. G'ovak

plastlardagi g'ovakchalar bir-biri bilan tutashib ketadi, ko'pik plastlarda esa ular aloxida-aloxida g'ovaklar xolida bo'ladi.

Ikkinchi usul shundan iboratki, qorishma (aralashma)ga koks, neft koksi, antrapit, termoantrapit, toshko'mir, qipiq, torf kabi moddalar qo'shiladi. So'ngra qorishma plastik yoki yarimquruq usulda presslanadi, so'ngra pishiriladi. 500—1000°C da mazkur organik moddalar kuyib ketadi, ular o'rnida juda ko'p mayda g'ovakchalar paydo bo'ladi.

Bunday engil vaznli maxsulotlar olovbardosh buyumlarning barcha xususiyatlarini o'zlarida saqlab qolgani xolda issiqlikni kam o'tkazadilar va aynan shu bilan ular boshqa olovbardosh materiallardan ustun turadilar. [9]

Olovbardosh materiallarning ishlatilish soxasi. Olovbardosh g'ishtlar, asosan qora metallurgiya sanoatida cho'yan va po'lat eritiladigan domna, marten, kislorodli konvertor va elektr pechlarning ichki devorlarida ishlatiladi. SHuningdek, po'lat quyish qurilmalarining cho'mish, stakan, tiqin va vtulkalari kabi qismlari qam shunday materiallardan yasaladi. Sanoatdagi pechlarning yoki quralarning poydevori va devorlariga xam shamot, mullit, mullit-korund, korund kabi materiallar ishlatiladi. Keyingi vaqtlarda metall eritish kombinatlari prokat tsexlarining ulkan isituvchi pechlarida korund va mullit kabi materialni qo'llanilishi katta iqtisodiy samara bermoqda.

Dinas g'ishtlar issiqlik tasirida 15 % ga kengayadi. SHunga ko'ra, ular xamma vaqt yuksak temperatura tatsiri ostida bo'ladigan inshootlarning gumbaziga, xavo isitgichlarning issiqlik tarqatuvchi qismlarida ishlatiladi. Pechlarning tez emiriladigan qismlari, po'lat quyish qoliplari magnezitli g'ishtlardan teriladi.

Rangli metallurgiya sanoatida olovbardosh materiallar qora metallurgiyadagiga nisbatan kamroq ishlatiladi. Bu erda ko'proq xromitli va tsirkonli materiallar qo'llaniladi. Jumladan, mis eritiladigan konvertor pech devori magnezitli g'ishtdan teriladi va shlaklar tasiriga chidamliligini oshirish maqsadida yuziga yupqa qatlam qilib magnetitli material qoplanadi. Yoqilg'ida ishlaydigan qo'ralar, shu jumladan, alyuminiy eritiladigan pechlar, shuningdek, platina, titan, palladiy,

ruteniy kabi metallar eritiladigan tigellar uchun pirkoniyli materiallardan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan maxsudotlarning o'ndan bir qismi sanoat qurilishlarida ishlatiladi. Masalan, g'isht pishiriladigan pechlar, yani davriy va uzluksiz ishlaydigan xumdonlar, asosan, shamot va dinas g'ishtlardan quriladi. Binolarning ichki va tashqi bezaklarini tayyorlash vaqtida ishlatiladigan qoliplar, tombop cherepitsalar, keramika qoshinlar, kanalizatsiya uchun ishlatiladigan quvurlar, sanitariya-texnika buyumlari, qolaversa, olovbardosh materiallarning o'zlari ana shunday pechlarda pishiriladi. Gips qaynatiladigan qozon, portlandtsement tayyorlanadigan aylanma pech, oxaktosh kuydiriladigan shaxta, shisha pishiriladigan vannalarning yuqori temperatura tasiriga uchraydigan qismlari shamotli materiallardan yasaladi.

Energetika va transport mashinasozligi korxonalarida, traktorsozlik va qishloq xujaligi mashinasozligi zavodlarida, oziq-ovqat, kimyo sanoati korxonalarida, temir yo'l va boshqa soxalarda xam olovbardosh materiallar tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Ulardan tsiklon, radiator, quvur, issiqlik izolyatsiyasi, elektr izolyatsiyasi va vakuumga turg'un detallar tayyorlashda foydalanilmoqda. Masalan, tsirkoniyli oksid reaktiv dvigatellarda korroziya va eroziyadan saqllovchi qatlam sifatida, shuningdek, atom reaktorini qurishda ishlatiladi. Berilliy oksididan yasalgan konstruktiv elementlar yadro energetikasida reaktor sekinlatgichlari va qaytargichlari vazifasini bajarmoqda. Magniy oksidi temperaturaning keskin o'zgarishiga bardosh beradi. SHuning uchun reaktiv dvigatellarning ayrim detallari, raketalarning konussimon tumshuq qismi shunday materiallardan tayyorlanadi. Elektronika soxasida xam bunday materiallardan keng foydalanilmokda.

Mamlakatimizda qora metall prokati ishlab chiqarish yiliga 14—17 % va tsement ishlab chiqarish 13—15 % ga ko'paytiriladi. SHuningdek, shisha, keramika buyumlar, rangli metallurgiya maxsulotlari xissasi xam ortadi. Bu esa olovbardosh materiallarni yildan-yilga ko'proq ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Respublikamiz sanoatining olovbardosh materiallardan maxsulot ishlab chiqaradigan tarmog'ini keng rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Uzbekiston Geologiya Vazirligi tasarrufidagi Geologiya va mineral xomashyo ilmiy-tadqiqot institutida, O'zbekiston Respublikasi Fanlari akademiyasining Xabib Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika institutida, Toshkent Kimyo-texnologiya instituti va Geologiya Vazirligining «Kimyogeolnorud» trestida mehnat qilayotgan olimlar va mutaxassislarining fikriga ko'ra, Anfen kaolini mazkur soxa uchun noyob, xomashyo xisoblanadi.

Respublikamizda sifatli shamot tayyorlash uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish, chunonchi, mavjud texnologiyani Angren gilmoyasiga moslab o'zgartirish, zarur qurilmalar o'rnatish, gilmoyani boyitish zarur. Bu soxada ishlaydigan malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi xal bo'lgan. Avval, Toshkent Politexnika institutida, keyinchalik esa Toshkent Kimyo texnologiya institutida ko'p yillardan buyon shunday mutaxassislar-muqandislar, bakalavr va magistrlar etishib chiqmoqda. Institutning «Silikat moddalar texnologiyasi» kafedrasi olimlari Angren kaolini sifatini o'rganib, unga turli kimyoviy moddalar tasirini tekshirib, bu xomashyodan tayyorlash mumkin bo'lgan olovbardosh maxsulotlarning xossalari yaxshilash, sifati va mustaxkamligini oshirish soxasida diqqatga sazovor ishlar qilmoqdalar.

Respublikamizda kaolin kabi xomashyolarning ko'pligi, yuqori malakali mutaxassislarining mavjudligi, olimlarning tinimsiz izlanishlari o'ta yuksak temperaturaga chidamli maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini qurib ishga tushirish uchun imkon beradi. Ishonchimiz komilliki, yaqin yillarda O'zbekistonda ana shunday korxonalar etarlicha qurilib, o'tda yonmaydigan va suvda zanglamaydigan maxsulotlar ishlab chiqarish zamona talablari asosida yo'lga qo'yiladi. [18]

Keramika va olovbardosh materiallar xususiyati

Keramika va olovbardosh materiallar turi juda ko'p. Ushbu kitobning birinchi qismida ta'kidlanganidek, keramika buyumlari va materiallari tadbiq etilishi, xossalari, ishlatilayotgan xom ashyo turi yoki tishgan mahsulotning fazoviy tarkibiga ko'ra klassifikatsiyalanadi.

Keramika va olovbardosh materiallar ishlab chiqarishning paydo bo'lish muhlatiga ko'ra, an'anaviy va noan'anaviy qisimlariga ajraladi. An'anaviy keramika esa 3 turga bo'linadi:

1. Qurilish keramikasi (qurilish g'ishti va boshqa).
2. Maishiy-xo'jalik va dekorativ keramikasi (sopol, chinni va boshqa).
3. Olovbardosh buyumlar keramikasi (shamot g'ishti va boshqa).

Noan'anaviy keramikaga texnika keramikasi (elektr izolyator va boshqa) kiradi.

Keramika materiallari iste'mol (tadbiq) etish oblastiga ko'ra, uch katta qisimga bo'linadi: 1) qurilish va sanoat qurilishi materiallari; 2) texnika materiallari; 3) maishiy-xo'jalik materiallari.

Qurilish va sanoat qurilish materiallari davrasiga qurilish keramikasi mahsulotlari hamda o'tga chidamli materiallari kiradi. Qurilish keramikasi devorbop, tomga va fasadga oid keramika, pol plitkasi, kanalizatsiya uchun ishlatiladigan sopol quvurlar, kimyoviy chidamli keramika, filtrlovchi kovak keramika, keramzit, agloporit va sanitariya qurilish sopol buyumlaridan tashkil topgan. Keng ko'lamda sanoat qurilishida ishlatiladigan o'tga chidamli materiallar kimyoviy mineralogik tarkibi hamda ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab o'n turga (qum tuproqli, alyumosilikatli, magnezialli, magnezial shpinelli, xromli, tsirkonli, uglerodli, karbid kremniyli, oksidli va kislorodsiz modda) ajratiladi. Ular ham o'z navbatida kompozitsiya tashkil etuvchi saosiy xom ashyo minerallari miqdorining o'zaro nisbati asosida 18 tipgabo'linadi.

Texnikada qo'llanuvchi materiallar asosan, texnika keramikasi gruppasiga mansub. Texnika keramikasi 6 tur mahsulotlarni o'z ichiga oladi: yuqori o'tga chidamli oqsidlar keramikasi, elektroizolyatsiyaga moyil silikatli va alyumosilikatli keramika, yuqori dielektrik o'tkazuvchanligiga ega bo'lgan

keramika, magnit xossalari ega bo'lgan keramika, baland haroratda eriydigan kislorodsiz birikmalar asosidagi keramika va keramatlar.

Maishiy xo'jalik materiallari va buyumlari asosan nafis keramika gruppasidan tashkil topgan. Nafis keramika buyumlari, 2 turga – chinni va sopol buyumlariga bo'linadi. Maishiy xo'jalik buyumlarini yana o'tga chidamli materiallar asosida ham olish mumkin.

Keramika mahsulotlarini tayyorlov usuli, ishlov berish xili, strukturasi, qattiq mayda zarrachalarining bir-biriga yopishib qolishi, sirlanganligi, yuzasining ko'rinishi, shakli va bichimi, o'tga chidamliligi, kislotaga barqarorligi va shunga o'xshash boshqa faktorlar asosida ham gruppaga va turlarga bo'linadi.

Tayyorlov usuliga ko'ra, masalan, barcha o'tga chidamli mahsulotlar – shliker yoki eritmadan quyilgan, plastik formovka qilingan, yarimquruq jipslangan, plastik bo'lmagan ko'piksimon massadan trambovkalardan, tog' jinsi va quyma bloklardan arralangan buyumlarga ajraladi. Termik ishlov berish xiliga qarab esa ushbu mahsulotlar kuydirilmagan (monolit tosh), kuydirilgan (shamot g'ishti) va eritib qo'yilgan (quyma kvarts) mahsulotlarga bo'linadi.

Keramika mahsulotlari quyma badiiy bezaklangan, naqishlangan, silliqlangan, emal bo'yoqlar bilan badiiy bezaklangan buyumlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Sindirib ko'rilgan yuzaning xarakteri (strukturasi) bo'yicha barcha buyumlar ikkiga-mayda tolali tuzilishga ega bo'lgan va yirik tolali tuzilishga ega bo'lgan buyumlarga ajraladi. Bunday yo'sinda klassifikatsiyalash, ayniqsa, nafis va dag'al keramika buyumlari uchun xos. Quyish va qoliplash jarayonida qattiq mayda zarrachalarining bir-biriga yopishib qolishiga ko'ra ham buyumlar tanasi tosh qotib qolgan va tanasi kavaklarga ajraladi. Tanasi kavakli buyumlar nur ta'sirida yaltiramaydi, yuzasi xira va ersimon tusga va anchagina g'ovaklikka ega bo'ladi. Tanasi tosh qotib qolgan buyumlar esa mustahkam, yaltiroq chig'anoqsimon yuzaga ega, ochiq va tutashgan g'ovaklarsizdir. Keramika buyumlari, shuningdek, sirlangan va sirlanmagan bo'lishlari mumkin. Tashqi muhit ta'siridan saqlash, dekarativ tus berish uchun buyumlar (masalan, sopol va

chinni, ichki hamda tashqi pardoqlash plitkalari, yuzali g'isht va kanalizatsiya quvurlari) sir bilan qoplanadi.

O'tga chidamli materiallar shakli va bichimiga ko'ra "to'g'ri" va "klinli", me'yorda g'isht va oddiy, murakkab, o'ta murakkab, yirik blokli fason buyumlariga ajratiladi. [8]

Olovbardosh materiallar xususiyatiga kelsak, ular kimyo-mineralogik tarkibga ko'ra, quyidagicha turlanadi:

1. Kremniyomli buyumlar – dinasli olovbardosh buyumlar va kvarts shishasi asosida olingan buyumlar.
2. Alyumosilikatli buyumlar – yarim nordon g'isht, shamot g'ishti va yuqori glinozyomli buyumlar.
3. Magnezialli buyumlar – magnezialli o'tga chidamli buyumlar va magnezialli-ohakli (dolomitli) buyumlar.
4. Magnezial – shpinelli buyumlar – magnezit-xromitli o'tga chidamli buyumlar, shipinelli buyumlar va boshqalar.
5. Magnezial – silikatli buyumlar – forsteritli o'tga chidamli buyumlar va boshqalar.
6. Uglrodli buyumlar.
7. Karbid kremniyli buyumlar.
8. Tsirkonli buyumlar – baddelitli va tsirkonli olovbardosh buyumlar.
9. Oksidli buyumlar – berilliyli, magniyli, kal'tsiyli va boshqa oqsidli olovbardosh buyumlar.
10. Kislorodsiz buyumlar – nitridli, boridli va boshqa olovbardosh buyumlar.

Olovbardosh materiallar ko'rinishiga ko'ra, 4 turga ajraladi:

- G'isht shakli oddiy buyumlar.
- Fasonli murakkab shaklli buyumlar.
- Yirik blokli buyumlar.
- Shakillantirilmagan materiallar – kukunlar, massalar, beton aralashmalari va boshqalar.

Olovbardoshlik xossalari ko'ra, barcha materiallar 3 gruppaga ajraladi:

1. Olovbardoshliligi 1580-1770°C bo'lgan o'tga chidamli buyumlar.
2. Olovbardoshliligi 1770-2000°C bo'lgan yuqori o'tga chidamli buyumlar.
3. Olovbardoshliligi 2000°C dan yuqori bo'lgan o'ta yuqori o'tga chidamli buyumlar.

Olovbardosh materiallar g'ovaklilik nuqtai nazaridan 3 gruppaga ajraladi:

1. Yuqori zich zarrachali olovbardosh buyumlar – g'ovakliligi 3 % dan kam bo'ladi.
2. Oddiy olovbardosh buyumlar – g'ovakliligi 20-30% atrofida bo'ladi.
3. Engil vazinli olovbardosh buyumlar – g'ovaklilik 45% dan yuqori bo'ladi.

Keramika va olovbardosh materiallar ishlab-chiqarishning umumiy texnologik tizimi

Keramika materiallari ishlab chiqarishning umumiy texnologik tizimi quyidagi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Xom ashyo (shamot, kaolin, kvarts, kvarts qumi, magnezit, dolomite va boshqalar)ni maydalash.
2. Xom ashyoni fraktsiyalarga ajratish.
3. Xom ashyoni tortish.
4. Xom ashyoni aralashtirish.
5. Aralashmaga shakl berish.
6. Qoliplangan buyumni quritish.
7. Quritilgan buyumni kuydirish.
8. Kuydirilgan buyumni sifati bo'yicha sortlash.
9. Kuydirilgan buyumni o'rash (upakovkalash).
10. Mahsulotni tayyor buyumlar omboriga joylash.

Olovbardosh buyumlar ishlab chiqarishning tipik chizmasi xom ashyo (o'tga chidamli tuproq, kaolin, magnezit, kvartsit va boshqa)larga oldindan ishlov berish, pishgan yarimfabrikat olish uchun ularni (kvartsitlardan tashqari) kuydirish, maydalash, bog'lovchi component (shamotli olovbardosh buyumda tuproq, dinasli

olovbardosh buyumda ohakli sut va boshqa)larni qo'shish, ularni aralashtirish, og'irligi 3-25 kg.li buyumlar olish uchun shakllash (bosim yordamida yoki boshqa usullarda) va quritish, qoliplardan chiqarilgan buyumlarni tunnel yoki boshqa pechlar yordamida 1300-1750°C li haroratda kuydirish.

Kuydirilmasdan ishlab chiqariladigan olovbardosh buyumlar ham mavjud. Ular ko'pincha yirik blokli ko'rinishda bo'ladi. Yana eritib olinadigan olovbardosh buyumlar ham bor. Shakillantirilmaydigan olovbardosh materiallar ishlab chiqarish jarayonida ularni maydalash va komponentlarni aralashtirish bilan tugaydi. [5]

Alyumasilikatli o'tgachidamli maxsulotlar

Alyumasilikatli o'tgachidamli maxsulotlar $Al_2O_3-SiO_2$ ikkili sistemasi bilan o'ralgan o'tgachidamli buyumlarni keng guruhini tashkil etadi. Kuydirilgan maxsulotda Al_2O_3 va SiO_2 isaqlanishiga asosan o'tgachidamli maxsulotlarni pastglinozemli, tarkibida SiO_2 65-85 % gacha va Al_2O_3 28% gacha; o'rtaglinozomli shamotli va shamot-kaolinli) va yuqorigilinozyomli, tarkibida Al_2O_3 - 45% gacha saqlovchi bir qator guruhchalarga ajratiladi.

Alyumosilikatli o'tgachidamli mahsulotlar texnologiyasi shamotli o'tgachidamli maxsulotlar misolida keltirilgan.

Ular shakllash, quritish va 28% Al_2O_3 saqlovchi xamda 1580°C o'tgachidamlilikga ega bo'lgan o'tgachidamli shamot yoki o'tgachidamli tuproq massasini kuydirish orqali olinadi.

Shamotni tayyorlanishi: Buyumlar uchun shamotni tayyorlashda shu buyumlarni ishlab chiqarishda qo'llanilgan tuproq ishlatiladi. Ammo shamot uchun kuydiriladigan tuproq qiyin kuyadigan bog'lash uchun yaroqsiz tuproq xam ishlatilishi mumkin.

Shamot uchun tuproqni kuydirish uzunligi 46,60 m bo'lgan shaxtali va aylanma pechlarda amalga oshiriladi. Materialni to'liq va tekis kuydirish (2,5-3 soatda pechlarda), shuni anglatadiki, degidratatsiya, mullit xosil bo'lishi va

kuydirish jarayonlariga jarayonni temperaturasi uni davomiyligiga qaraganda ko'proq ta'sir qiladi. Pechlardan chiquvchi gazlarni changini ushlash uchun chang sotuvchi komeralar va elektofiltirlar o'rnatiladi.

Shamotli massani qayta ishlash: shamot uchun kuydirilgan tuproq 40-50 % gacha mayda fraktsiya (0,5 mm) saqlaydigan, odatda 3-4 mm gacha don kattaligigacha maydalaniladi. 20-40 mm kattalikdagi shamot bo'laklari jag'li maydalagichlarda maydalanib, keyin kamblenirlangan val'tsali sharli tegirmonlarda yana maydalanadi. Bu mashinalarda maydalanganda etarlicha nozik fraktsiyalar miqdorini olib bo'lmaydi. Don kattaligidagi 10,1-0,2 mm) shamotni olish uchun quvurli tegirmonlarni o'rnatish tavsiya etiladi. 0,1-0,2 mmli don kattaligidagi shamot miqdori ko'paygan sari maxsulotni mustaxkamligi va zichligi oshadi va biroz termik turg'unligi pasayadi. Yuqorida keltirilgan fraktsiya miqdori 1-2 mm gacha kamayganda maxsulot struqturasini parchalanishiga va mustaxkamligini pasayishiga olib keladi. Shamotni don kattaligini oshirishni maxsulotni termabardoshligini xam oshiradi. O'rtacha fraktsiyalarni miqdori va nisbati (1,5-0,5 mm) deyarli maxsulot sifatiga ta'sir qilmaydi. O'tga chidamli maxsulotlarni kuydirishda o'lchamlari va shaklini o'zgarishi, xamda maxsulot tuproqi tarkibini oshishiga bog'liq ravishda mustaxkamligini pasayishi ko'p shamotli massali tarkibni qayta ishlashni talab etdi. Ko'pshamotli maxsulotlarni ishlab chiqarishda ularni sifatiga granulometrik tarkibi ta'sir qiladi. Yirik va mayda fraktsiyalarni nisbati 10:1 dan 20:1 gacha bo'lishi lozim. Yirik fraktsiyani o'rtacha kattaligi mayda fraktsiyani o'rtacha kattaligidan 5-6 martacha oshishi kerak. Bu maxsulotni zichligini xamda mustaxkamligini oshiradi va termik turg'unlikni pasaytirmaydi.

Ko'p shamotli o'tga chidamli maxsulotlar yuqori aniqlikdagi o'lchashlarga va yuqori mustaxkamlikka (60-70 MPa), past g'avaklikga (12% gacha) ega. Shamot va o'tga chidamli tuproqni shamotli buyumlarni shixtasidagi nisbati ularni ishlab chiqarish usuli va maxsulotni ishlatilish soxasiga binoan o'zgaradi. Past plastiklikli tuproqlardan tayyorlangan kamshamotli maxsulotlarni ishlab chiqarishda tarkibida 20-30 % shamot bo'ladi; shamotli g'isht va boshqa

maxsulotlarni ishlab chiqarishda bu ko'rsatkich 30 dan 70% gacha o'zgarishi mumkin; yarim quruq presslangan ko'pshamotli maxsulotlar massasida shamot miqdori 75-85 % ni, xamda yuqori navli ko'pshamotli maxsulotlarda – 90 % ni tashkil etadi.

Shamotli o'tgachidamli maxsulotlarni ishlab chiqarish texnologik jarayonini sxemasi xom-ashyo materiallarni xususiyatlariga va maxsulotga qo'yilgan talabga bog'liq. Tayyorlanayotgan maxsulotni massasini turidan qat'iy nazar, plastik va yarim quruq presslash qo'llaniladi.

Shamotli g'isht kesish apparatli lentali presslarda shakllanadi.

Yirik va murakkab buyumlarni olinadigan shakilli formalarga qo'yish bilan qo'lda shakillanadi.

Yarim quruq presslashdashixta 8-9 % nisbiy namlikgacha nomlanadi. Bunday namlikda shixtada 40-50 % gacha bo'ladigan bog'lovchi tuproq butkul plastic xususiyatlarni olmasdan, faqat qisman bo'ktiriladi. Shuning uchun yaxshi qovushqoqlikga erishish uchun tuproq bilan shamotli massa yaxshilab qayta ishlanadi va 15 MPa bosimida presslanadi. G'isht, bosim kuni 2, 4,25; 6,3 va 12 MN gacha o'stiruvchi gidrovlik bosimga qarashli Boyd, SM-143 A, PK-630, SM-704 presslarida presslanadi. Shu bilan birga "Banau-Valf" 1,5 MN kuchli mexanik presslar xam qo'llaniladi.

Ko'p shamotli massalarni yarim quruq usulda bog'lovchi sifatida tayyorlashda mayda dispersli yuqori plastikli tuproqni qo'llash lozim; shamot butunlay kuygan va donli tarkibga ega bo'lishi kerak. Optimal shixta shamotni 30-45 % yirik fraktsiyani (0,5-3 mm), 40-60 % mayda fraktsiyani, 10-25 % tuproq va 0,5% atrofida quruq moddaga sulfit-spirtli barda saqlashi lozim.

Mayda donli shamotni tuproq bilan quvurli tegirmonda aralashtirish shamot bilan tuproqni zich bog'lanishini taminlaydi, altobunda uskunani unumdorligi begunlarda qayta ishlagandan pastroq bo'ladi. Quvurli tegirmonda maydalangan tuproqni namligi 5 % dan oshmasligi lozim. Ko'pshamotli massadan tayyorlangan buyumlar SM-108513 richagli pesslarda, xamda DO-543 gidrovlik presslarda presslanadi. Plastik massalarni formalarga zich kuyish, xamda yarim quruq

massalarni trambovkalash 50-70sm qalinlikda va qatlab amalga oshiriladi. 80 mm qalinlikdagi maxsulotlar bir qatga zich taxlanadi, 80 va 150 mmli maxsulotlar – ikki qatga, 200 mm qalinlikgacha bo'lgan maxsulotlar – uch qatga va x.k.z. ko'p shamotli massalarni umumiy kirishishi 1,4-1,6 %, yarim quruq presslangan shamotli massalarniki esa 2-2,15% bo'ladi.

Maxsulotlarni quritish va kuydirish. Shamotli g'isht va oddiy fasondagi maxsulotlar odatda tunelli quritgichlarda quritiladi, murakkab va yirikgabaritli maxsulotlar esa davriy ishlaydigan quritgichlarda quritiladi. Dinasli maxsulotlarga qaraganda shamotli buyumlar kuydirish jarayonida etarlicha qisqarishga moyil, konchilik qisqarish ko'rsatkichi katta bo'lsa, shunchalik massadagi tuproq plastikliigi yuqori bo'ladi. Shamotli buyumlarni kuydirish temperaturasi birinchi navbatda bog'lovchi tuproqni quyish temperaturasiga va bir necha darajada ishlab chiqarish usuliga bog'liq bo'ladi; yarim quruq presslangan maxsulotlar plastik shakillangan maxsulotlarga nisbatan yuqoriroq temperaturalarda kuydiriladi. Shamotli maxsulotlarni kuydirish temperaturasi odatda 100-150°C gacha bog'lovchi tuproqni kuydirish temperaturasidan oshiq bo'ladi.

Bog'lovchi tuproqni kuydirishda qisqa temperature intervalida kuydirishni 50-100°C gacha bog'lovchini kuydirish temperaturasigacha oshiriladi. Masalan: past kuydiriladigan tuproqdan plastik usul bilan tayyorlangan maxsulotlarni temperaturasi 1250-1300°C chegarasida o'zgaradi, yuqori kuydiriladigan tuproqlar uchun esa temperature 1320-1380°C gacha o'zgaradi. Ishlab chiqarishni ko'p shamotli usuli bo'yyicha kuydirish temperaturasini yana 30-50°C gacha ko'tarish lozim.

Shamotli maxsulotlar uzunligi 60,120,135,150 va x.k. bo'lgan tunelli pechlarda kuydiriladi. Kuydirish davomiyligi 40 dan 60 soatgacha. Massasi 30 kg dan oshiq bo'lgan maxsus fasonli buyumlar 80-140 soat davriy pechlarda xamda tunelli pechlarda kuydiriladi. Halqali pechlarda kuydirish 60-120 soat davom etadi. Maxsulot massasiga ko'ra davriy pechlarda shartli yoqilg'i sarfi 20-30% ni tashkil etadi, xalqali pechlarda 8,5-12% ni, tunel pechlarda esa 7-9 % ni.

Yarim nordon o'tgachidamli maxsulotlar tarkibida 28% Al_2O_3 va 65% SiO_2 saqlovchi tabiiy (kvarts qo'shimchalari bilan ifloslangan) yoki suniy ishlangan o'tga chidamli tuproq va kaolinlarni kuydirish yo'li bilan olinadi. Yarim nordon o'tgachidamli maxsulotlarni xarakterlovchi bir tomoni ularni doimiy xajmi: kremnezemni miqdori oshganligi yarim nordon maxsulotlarni o'tgachidamliligini pasaytirishiga qaramasdan, ularni defarmatsiyalashni temperaturasida kuch ostida, hamda shamotli maxsulotlarnikiga qaraganda belgilangan sharoitlarda shlanka bardoshlilik psat emas. Yarim nordon maxsulotlarni xususiyatlari kvartslı qo'shimchalarning zarrachalari o'lchamlariga bog'liq. Xususan, kvartslı qo'shimchalarni donachalarini o'lchamlari 1 dan 2-3 mm gacha ohsa, siqilishga mustaxkamlikni pasaytiradi, shu bilan birga maxsulotni yoriqqa bardoshlilikini oshiradi. Yarim nordon maxsulotlarni olovbardoshlilikı kvarts zarrachalari o'lchamlarini qisqarishi bilan kamayadi. Bu aynan 0,1 mmlı kvarts zarrachasi qo'shilganda seziladi.

Kvartsni mayda fraktsiyalari katta yuzaga ko'ra suyuqlanmadi tezroq eriydi va cherek strukturasi qattiq bo'ktiradi, uni g'ovaklıligini oshiradi va termik turg'unlikni pasaytiradi. Kvarts saqlovchi massalarni sifatini oshirish maqsadida 0,2 mmlı donachalar miqdorini qisqartirishi uchun uni shamot ko'rinishida kiritiladi.

Shamotli tuproq massasidan tayyorlangan shamotli olovbardosh maxsulotlar (2-jadval) sanoatda ishlatiladigan olovbardosh maxsulotlarni keng tarqalgan turi xisoblanadi 2- jadval. Olovbardosh maxsulotlarni xususiyatlari.

(GOST 390-83).

Ko'rsatkich	Shamotli				Yarim nordon	
	ShA	SHB	SHV	SHUS	PS	PV
Olovbardoshlik °C	1730	1670	1630	1580	1670	1580
$t_{0,6,p}$ °C	0,5-0,7	0,7	0,7	0,7	0,3-0,5	0,8
temperaturada qo'shimcha	1400- 1300	1350	1250	1250	1350	1250

qisqarish 5						
δ_{siq} MPA	23-15	20-13	13	12,5	15-20	10
Termabardoshlik Ps%	24-3010	24-306	24-30	Parmalanmagan		
Ishlatish temperaturasi °C	1400	1350	1250	1250	1350	1250
Massa bo'yicha Al_2O_3 va SiO_2 saqlanishi, %	33-30	28	28	28	28 past	28 past
	Parmalanmagan				67-85	65-85

Shamotli-kaolinli olovbardosh maxsulotlar birlamchi boyitilgan kaolindan yoki qo'shimchalardan etarlicha tozalangan ikkilamchi kaolinlardan tayyorlanadi. Bu maxsulotlarni tayyorlanish texnologiyasi shamotli materiallar texnologiyasi shamotli materiallar texnologiyasidan deyarli farq qilmaydi. Uni ahamiyati kaolinni yuqori temperaturalarda kuydirilishidan belgilanadi. Shu bilan birga uni ichida mullit xosil bo'lishi xamda 1450-1500°Cda ishlatilayotgan kaolin tozaligi evaziga yakunlovchi jarayonlar bilan boradi. Kaolinni uzoq muddat maydalash uni dispersligini oshiradi, kuyish temperaturasini 50°C gacha tushiradi va plastik xususiyatlarini yaxshilaydi. Bu toza navli kaolinlar uchun o'ta muxim.

Massaga 10-20% engil kuyuvchi tuproqni kiritish kaolinni bog'lovchilik va shakillanish xususiyatini yaxshilaydi va kuyish temperaturasini 100°C gacha pasaytiradi.

Kaolinli maxsulotlar domna pechlarining xavo qizdirgichdan chiqqach 21-25% g'avaklikka va 39 dan 40-20 MPa siqilishda mustaxkamlikka ega. Ko'pshamotli kaolinli maxsulotlar esa 10-14% g'ovaklikda 100 MPa siqilishdagi mustaxkamlikka ega bo'ladi. Ularni asosiy shlaklarda erishi shamotli olovbardosh materiallarga qaratganda 1,3 martaga kamayadi. Mullit miqdori 5-10% ga oshadi va 55-60% ga erishadi. Ishqorlarni kam miqdorda saqlanishi shisha faza xosil bo'lish temperaturasini oshiradi.

Yuqoriglizemli olovbardosh materiallar 45% gacha Al_2O_3 saqlaydi. Bu miqdor boyitilgan kaolindan tayyorlangan materiallar saqlovchi Al_2O_3 miqdorida ancha ko'p. (Gost 24704-81). Materillar tabiiy yoki suniy yuqoriglinoziyomli xom ashyolardan tayyorlanadi. Al_2O_3 saqlanishi va fazoviy tarkibga ega bo'lishidan qat'iy nazar materiallar: mullit kremnezemli (45-62% Al_2O_3); mullitli (62-72% Al_2O_3); mullit korudli (72-90% Al_2O_3) va korundli (Al_2O_3 90% dan oshiq)ga bo'linadi. Materiallar sintetiklangan yuqori glinoziyomli shamotdan tayyorlanadi. Bunda bog'lovchi sifatida yuqoriplostikli olovbardosh tuproq ishlatiladi.

Mullit kremnezemli olovbardosh materiallar oshishda mayin maydalangan yuqori glinoziyomli xom ashyoni konsentratini (kianit, andalazit, sillimanit yoki disten; umumiy formulasi $Al_2O_3 \cdot SiO_2$) xamda diaspor yaxshilab birinchi navli latnen tipli LT-1 olovbardosh tuproq bilan aralashtiriladi; aralashma biriketlanadi va shamot uchun kuydiriladi.

Mullitli va mullit korundli olovbardosh materiallar olishda shamot texnik glinozem va tuproqdan tayyorlanadi. Koltsinirlangan glinoziyom (kuydirilgan glinoziyom gidroti) sharli tegirmonlarda 5-10 mkm o'rtacha donachalar kattaligida maydalanadi, keyin latnen tuprog'i bilan mullit tarkibiga javob beruvchi nisbatda aralashtiriladi. Brikentdagi Al_2O_3 miqdorini maxsulot tarkibidagi Al_2O_3 talablari belgilaydi. Shunday qilib, 70% Al_2O_3 saqlovchi mullitli olovbardosh material olish uchun brikentdagi Al_2O_3 miqdori 80% bo'lishi kerak. Xosil bo'lgan massadan brikentlar shakillanadi va quritishdan keyin 1550-1600°C da kuydiriladi. Mullitdan tashqari korund, yani Al_2O_3 ni α -modifikatsiyasi kristallarini saqlovchi kuydirilgan birket 1% atrofida suv yutish va qisqarishga deyarli mayin emasligi bilan xarakterlanadi.

Materiallar tayyorlashda olingan yuqori glinoziyomli shamotga bog'lovchi sifatida 15-20% chasov-yarskiy tipdagi yuqori plastikli olovbardosh tuproq qo'shiladi. Briket maydalangandan keyin va olingan bog'lovchi massa bilan aralashtirilib materiallar yuqori bosimda presslash yoki pnevmatik trombovkalash usuli bilan tayyorlanadi. Bu usullar yuqori zichlikni, doimiy shakl va o'lchamlarni va maxsulotni yuqori sifatli ta'minlaydi. Materiallarni kuydirish mineralizatorlar

ishtirokida 1500-1550°C temperaturada amalga oshiriladi. Mullitli maxsulotlar mullitkorundli shamotdan va bog'lovchi tuproqdan tayyorlanganda maxsulotlarni o'sishi kuzatiladi. Bu quyidagicha izoxlanadi: mulitlizatsiyadan chiqqan kremnezem eng avvalo alyuminiy oksidi bilan reaksiyaga kirishadi va 1400-1450°C “ ikkilamchi mulitni” xosil qiladi. Bu xajmiy kengayish bilan boradi (mullit va korund zichligi farqi xisobiga). Bu kengayishni mayin maydalangan texnik glinoziyomni kiritish orqali oldini olish mumkin. Bunda texnik glinoziyom mayda fraksiyali shamot o'rniga kiritiladi (SiO_2 ni bog'lash uchun zarur bo'lgan miqdorda). Toza SiO_2 (kvarts) va Al_2O_3 dan mullitni sintez qilish 1600°C xaroratda amalga oshiriladi.

Korundli materiallar texnikglinoziyomdan tayyorlanadi. Al_2O_3 ni α -madifikatsiyasiga aylantirish va qisqarishni yakunlash uchun texnik glinoziyom oldindan 1450-1600°C da kuydiriladi, keyin 2-3 mkm donchalar o'lchamigacha maydalanadi. Mineralizatorlarni kiritish esa ($\text{CaO-SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3$ sistemasini 3-7% li shisha evtektik tarkibini yoki 1% TiO_2) kuydirish temperaturasini 1650-1550°C gachapasaytiradi. Olovbardosh materiallarni tayyorlashda xizmat qiladigan donsimon tuzilishli maxsulotlar va zich cherepli korundli maxsulotlar turlari mavjud. Donsimon tuzilishli buyumlar bog'lovchi tuproqdan yoki mayin maydalangan texnik glinoziyomdan tayyorlanadi. Ularga to'ldiruvchi sifatida ozotda elektroeritilgan korund (donodorligi 1-3 mm), ya'ni aland yoki korroks ishlatiladi.

Eritilib quyilgan olovbardosh materiallar yoyli elektro pechlarda tayyorlanadigan suyuqlanmani quyishi yo'li bilan olinadi. Quyish uchun issiq izolyatsiyalangan cho'yon, grofid yoki qumli plitalar ishlatiladi. Quyilgan bruslar formasi diatomitli quymaga joylashtiriladi va 10-15 sutka sovutiladi. Shisha bruslarni sovutish uchun tunnelli yoki konveyrli pechlar ishlatiladi. Bu jarayonni berilgan rejim bo'yicha olib borishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida unda qoldiq mexanik kuchlar paydo bo'lishini oldini oladi. Brusda qoldiq kuchlanishlar 1500-1200°C temperaturada bo'ladi. Pastroq temperaturalarda esa faqat

vaqtinchalik qoldiq kuchlanishlar paydo bo'lib material qalinligi bo'yicha temperature tekislanganda yo'qoladi.

Bu usul bilan mullitli, mullitkorundli va korundli bruslar, Kor-93 (GOST 5,1142-71), kum suyuqlanmasi qo'shilgan texnik glinoziyom suyuqlanmasidan qo'yilib olinadi.

Ishqorlarga va er ishqoriy oksidlariga yuqori bardoshlikka ega bo'lgan materiallar bu –baddelemtokorundli quritilgan olovbardosh materiallardir (GOST 23053-78), ular tsirkoniy dioksid qo'shimchali yoki ($ZrO_2 \cdot SiO_2$)- “banar” tsirkon kontsentrati qo'shimchali texnik glinaziyomdan eritib olinadi. Bu olovbardosh materiallar tarkibida: ZrO_2 -33-41%, Al_2O_3 -45-49% va SiO_2 13-14% ni saqlaydi. Bu maxsulotlar shisha sanoatida xamda domna pechlarini qurishda ishlatiladi. [3]

O'tga chidamli materialning suv shimuvchanligini aniqlash

O'tga chidamli g'ishtning suv shimuvchanligini aniqlash. 3 ta butun yoki yarimtali g'isht, suv, quritgich, kimyoviy tarozi idish, xo'l latta, lineyka. Suv shimuvchanlik — materialning suvni shimib olish va g'ovaklarida saqlab turish qobiliyatidir. Materialga shimilgan suv mayda-chuyda teshiklar va kapillyarlarni to'ldiradi, lekin ularning ayrimlariga suv o'tolmaydi; suv to'lgan g'ovak- bo'yicha hisoblab topiladi.

Materialning massa bo'yicha teshiklarda havo ham qisman saqlanib qoladi; shunga ko'ra materialga shimilgan suvning miqdoriga qarab uning faqat ochiq g'ovakliligini taxminan aniqlash mumkin. Materialning suv shimuvchanligi massa va xajm

suv shimuvchanligi $Ssh_{massa}[\%]$ suvga to'yingan na'muna tomonidan shimib olingan suv massasining quruq na'muna massasiga bo'lgan nisbatiga teng:

$$Ssh_{massa} = [(m_1 - m) / m] \cdot 100$$

bu erda t — quruq na'munaning massasi, kg; m_1 — suvga to'yingan na'munaning massasi, kg.

Materialning xajmiy suv shimuvchanligi $Ssh_{xajm}[\%]$ suvga to'yingan na'munaga shimilgan suv massasining na'muna xajmi V ga bulgan nisbatga teng:

$$Ssh_{xajm} = [(m_1 - m) / V] \cdot 100$$

Materialning massasi bo'yicha suv shimuvchanligi bilan xajmiy suv shimuvchanligi o'rtasidagi nisbat quruq xoldagi materialning o'rtacha zichligiga teng:

$$Ssh_{xajm} / Ssh_{massa} = (m_1 - m) / V : (m_1 - m) / m = m / V = s$$

Materialning massasi bo'yicha suv shimuvchanligi va o'rtacha zichligi ma'lum bo'lsa, uning xajmiy suv shimuvchanligini topishga yordam beradigan formulani tuzish mumkin:

$$Ssh_{xajm} = Ssh_{massa} \cdot s_0$$

Qurilish materiallarning suv shimuvchanligi quyidagicha aniqlanadi:

tekshiriladigan materialdan tayyorlangan uch-besh namuna massasi o'zgarmaydigan xolga kelguncha $110 \pm 5^\circ C$ xaroratda quritiladi va uy xaroratigacha sovitiladi; so'ngra na'munalar idishdagi suvga solinib, massasi o'zgarmaydigan xolga kelguncha suvda saqlanadi. Har xil material-larni sinash tartibi xil bo'lib, tegishli GOST larda ko'rsatilgan.

Tabiiy tosh materiallarning suv shimuvchanligini aniqlashda turli geometrik shaklli na'munalardan ham, noto'g'ri shaklli na'munalardan ham foydalaniladi, ularning xar biri materialdan sindirib olingan parcha ko'rinishida bo'lib, qirrasining uzunlign kamida 4 sm ga teng. Bo'shroq zarralardan tozalangan va quritilgan namunalar tarozida tortiladi, shisha idishga yoki chinni vannachaga joylanib, ustiga distillangan suv qo'yiladi, suv satxi namunalar balandligining 1/4 qismiga etib turishi lozim. Oradan 2 soat o'tgach, idishdagi suv ko'paytiriladi, bunda na'munalar yarmigacha suvga botib turadi, 3 soatdan keyin idishdagi suv yana ko'paytiriladi, bu gal na'munalar balandligining 3/4 qismicha suvga botishi va shu xolida bir sutka saqlanishi kerak. Keyin yana suv quyilib, na'munalar suvga butunlay cho'ktiriladi, oradan bir sutka o'tgach, namunalar suvdan chiqarib olinadi va xar biri xo'l latta bilan engil artiladi, tarozida tortiladi va yana suvda bir sutka saqlanadi. Namunalar massasi o'zgarmaydigan xolga kelguncha bu ish takrorlanaveradi.

Materialning massasi bo'yicha suv shimuvchanligi bilan xajmiy suv shimuvchanligi yuqorida berilgan formula buyicha 0,1% gacha aniqlikda hisoblanadi. Bir xil tuzilishdagi TOF jinslari uchun — uch marta o'tkazilgan sinov natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati, xar xil tuzilishdagi tog' jinslari uchun esa besh marta o'tkazilgan sinov natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati suv shimuvchanlikni ifodalovchi eng so'nggi natija sifatida qabul qilinadi. Sinash natijalari laboratoriya ishlari daftariga yozib qo'yiladi.

G'ishtning suv shimuvchanligi quyidagicha aniqlanadi: 3 ta butun yoki yarimtali g'isht xarorati 15—20°S li suv tuldirilgan idishga 48 soat yoki qaynab turgan suvga 4 soat solib qo'yib suvga to'yintiriladi; shu muddat o'tgandan keyin ular 105—110°S issiqda, to massasi o'zgarmaydigan bo'lguncha quritiladi; so'ngra tarozida ketma-ket ikki marta tortiladi, birinchi marta tortib aniqlangan massa bilan ikkinchi marta aniqlangan massa orasidagi tafovut 0,2% dan katta bo'lmasa, uni barqaror massa deyish mumkin. G'ishtar obdan sovuganidan keyingina tarozida tortilishi lozim. Quritilgan G'ishtar birinchi marta tortilib, oradan kamida 3 soat o'tgach (ularni quritish va sovutishga ketgan vaqt ham shu hisobga kiradi), ular ikkinchi marta tortib ko'riladi.

G'ishtlarni suvga to'yintirish tartibi quyidagicha: G'ishtar xarorati 15—20°S li suv quyilgan idishga solib qo'yiladi, suvning satxi g'ishtning ustki yuzasidan hisoblaganda 2—10 sm baland bo'lishi lozim. G'ishtar 48 soatdan keyin suvdan olinadi, xo'l latta bilan artiladi va darxol tarozida tortiladi, g'ishtdan tarozi pallasiga oqib tushgan suvning massasi ham G'ISHTNING massasiga qo'shiladi.

Na'muna-g'ishtning suv shimuvchaaligi S_{sh} (%) quyidagi formula buyicha aniqlanadi:

$$S_{sh}=[(m_1-m)/m] \cdot 100$$

Bu erda m_1 ,—suvga to'yingan g'ishtning massasi, g; m —massasi barqarorlash-guncha quritilgan g'ishtning massasi, g.

G'ishtning suv shimuvchanligi uchta na'munani sinovdan o'tkazish natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblab chiqariladi.

G'ishtning suv shimuvchanligini tez aniqlash uchun qaynatish usulini qo'llash mumkin. Bunda yuqorida aytilgan tartibda tayyorlangan uchta g'isht-na'muna suvli idishga solinadi va suv qaynatiladi; G'ishtar qaynab turgan suvda 4 soat turishi kerak; shu muddat o'tgandan keyin ular, idishga uzlyuksiz ravishda oz-ozdan sovuq suv qo'yib turgan xolda, 20—30°C gacha sovutiladi. G'ishtlarni tarozida tortish va ularning suv shimunchanligi hisoblab chiqarish ishlari yuqorida bayon etilgan usulda olib boriladi. G'ishtning suv shimuvchanlik ko'rsatkichi 8 % dan kam bo'lmasligi lozim. [11]

III. ISHNING QISQACHA MAZMUNI MAQSAD VA VAZIFALARI

Menga bitiruv ilmiy ishimda Mahalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning loybaratoriya tajriba reglamentini yaratishni vazifa qilib berilgan. Men bu vazifani bajarishdan oldin O'zbekiston xududida joylashgan kaolin konlarning borligini va zaxiralarni o'rganib chiqishni o'z oldimga vazifa qilib qo'ydim. Respublikamizda Angren kaolini zaxirasi olovbardosh maxsulotlar ishlab chiqarish uchun 550 yilga yetadigan zaxiraga ega ekan. Biroq men vazifamdan kelib chiqan xolda Xorazm vaxasida joylashgan zahirasi oldin o'rganilib hozircha foydalanilmasdan kelayotgan Chilpiq qoo'lini to'g'risida gapirib o'tmaqchiman. Chilpiq qoo'lini koni Qarqolpoq avtonom Respublikasi Mangit tumanida joylashgan.

Men o'z tadqiqot ishimda dastlab kaolindan shamot olib keyinchalik shamot-kaolindan qo'shib olovbardosh g'isht olishning o'z oldimga vazifa qilib qo'ydim. Bu vazifani bajarishda ko'p kina alovbardash mahsulotlar to'g'risida yozilgan va internet malumotlardan foydalandim. Shamotli o'tga chidamli maxsulotlarning o'zi yarim nordon, shamotli, yuqori shamotli, qoruntli alyumosilikatli g'ishtlarga bo'linadi. Bularning tarkibidagi Al_2O_3 miqdoriga qarab yuqorida aytib o'tilgan g'ishtlarda bo'linadi. Mening uchun shamotli so'zidan

kelib chiqib yarim nordon va qorontli olovbardosh g'ishtlar vazifam emasligidan kelib chiqib shamotli g'ishtni tadqiqot qilishlarni o'z oldimga vazifa qilib qo'ydim.

XIV-XV asrlarda rudadan temir ajratib olish va temirdan qurol-aslaha tayyorlash keng yo'lga qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida, metal ishlab chiqarish sanoatiga asos soldi.evropada shu davrda birinchi domni pechlari qurilib, olovbardosh maxsulot tayyorlana boshlandi va ularning miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash zarurati tug'ildi.

Keyinchalik po'lat ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shu munosabat bilan cho'yandan po'lat oladigan mahsus qurilmalar-konvertor va marten pechlari barpo etildi. Bu esa, o'z navbatida, olovbardosh maxsulotlarning yangidan-yangi turlarini paydo bo'lishiga olib keldi va uning issiqqa chidamliligini oshirish ustida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirishni taqozo qildi.

XX asirning 50-yillaridan boshlab og'ir sanoatning barcha soxalari, shu jumladan olovbardosh maxsulot ishlab chiqarish tarmog'ini yuksak su'ratlar bilan rivojlantirish choralari ko'rildi. Sanoatni homashyo bilan ta'minlash uchun birinchi navbatda kon qidiruv ishlariga katta e'tibor berildi. Shu maqsadda giolog-mutahasislardan iboratqidiruv otryadlari tashkil etilib. Ural, Kavkaz, Ukraina, Qozoqiston, O'rta Osiyo va boshqa o'lkalarga yuborildi. Respublikamizning ko'pgina rayonlarida xar hil foydali qazilmalar, jumladan, kaolin, magnizit, dolomit, kvarts, alunit, boksit, hromit, talk konlari topildi. Shuni aytish lozimki, O'zbekistonda olib borilgan geologic-qidiruv ishlari natijasida boshqa konlar qatori angrenda kaolin zahirasi borligi aniqlandi.

Sanoatning olovbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan tarmog'ini kengaytirish, topilgan hilma-hil homashyoni chuqur fizik va kimyoviy analiz qilish, tayyor mahsulotning turini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash, struqturasi va hususiyatlarini keng o'rganib, klassifikatsiyalashga o'zbek olimlari xam katta xissa qo'shmoqdalar.

Respublikamiz, shu jumladan, Toshkent olimlari xam bu soxada muhim izlanishlar olib borishmoqda. Masalan, Toshkent Kimyo-texnologiya insitutining kimyo-texnologiya faqul'tetidagi olimlar O'zbekistonning Angren kaolini va

Turkmanistonning Badxiz aluniti asosida olovbardosh shamot g'ishti tayyorlash yo'lini ahtarmoqdalar. Toshkent Temir yo'llari instituti olimlari xar hil qo'shimchalardan olovbardosh maxsulot olish uchun eng maqbul kompozitsiya tanlash, tayyor buyumning hususiyatlarini o'rganish yuzasidan tadqiqot olib bormoqdalar. [7]

Olovbardosh materiallar. Yuksak temperaturaga bardosh bera oladigan maxsulotlar va materiallarning turi juda ko'p. Shunday material olinadigan homashyoning xili yanada ko'proqdir.

Sanoat qurilishida ishlatiladigan olovbardosh materiallar homashyoning fizik va kimyoviy tabiatiga, kimyoviy-mineralogik tarkibiga xamda tayyorlash texnologiyasiga qarab asosan sakkiz gruppaga ajratiladi: 1) kremnezyomli, 2) alyumosilikatli, 3) magniyli, 4) hromli, 5) shirkoniyli, 6) uglerodli, 7) oksidli va 8) kislorodsiz moddadan iborat materiallar. Xar bir gruppa kompozitsiya tashkil etuvchi asosiy minerallarning o'zaro nisbatiga qarab tiplarga ajratiladi. 1-gruppaga –dinasli va kvartslip tip, 2- guppaga – shamotli, yuksak glinozyomli va yarimnordon tip, 3- guruppaga – magnezitli, dolomitli, forsteritli va shipinetli tip, 4-gruppaga – hromitli, hrom- magnezitli va magnezit – xromli tip, 5- gruppaga – tsirkonili va tsirkonli tip, 6- gruppaga – koksli va grafitli tip, 7- gruppaga- oksidli va 8- gruppaga – karborundli va boshqa tiplar kiradi.

Maxsulotlar tayyorlash usuli, shakli va o'lchami, ko'rinishi, yuqori temperature xamda kislota ta'siriga chidamliligi va boshqa hususiyatlariga qarab gruppa va turlarga ajratiladi.

Olovbardosh maxsulotlar shakllash usuliga ko'ra, shliker yoki eritmadan qo'yilgan, plostik formovka qilingan, yarimquruq preslangan, quruq kukunsimon massadan presslar yordamida jiplashtirilgan, tog' jinsi va quyma bloqlardan arralab yasalgan turlarga ajraladi. Termik ishlov berilishi jixatdan ular kuydirilgan (shamot g'isht) va eritib quyilgan (kvartslip blok) maxsulotlarga, sindirib ko'rganda yuzasining strukturasiqa qarab mayda tolali va yirik tolali tuzilishdagi buyumlarga ajratiladi. Quyish jarayonida mayda zarrachalarning bir-biriga yopishish darajasiga qarab, maxsulotning tanasi tosh qotgan yoki kovakli bo'lishi mumkin. Tanasi tosh

qotgan g'isht mustahkam, sindirilgan yuzasi yoltiroq chig'anoqsimon bo'ladi, ochiq va tutashgan g'ovakli bo'lmaydi. Tanasi kavakli g'isht yaltiramaydi, yuzasi hira, bo'zrang va birmuncha g'ovak bo'ladi.

Olovbardosh materiallarshakli va o'lchamiga ko'ra "to'g'ri" va "qiyin" normol g'ishtlar xamda oddiy, murakkab, o'ta murakkab va yirik blok shakldor buyumlarga, temperaturaga chidamliligi jixatidan o'tga chidamli (1580-1770°C), yuqori temperaturaga chidamli (1770-2000°C) va juda yuksak temperaturaga chidamli (2000°C dan yuqori) turlarga ajraladi. [4]

IV. TAJRIBA-TATQIQOTLAR QISMI

Menga bitiruv ishimni bajarishimda "Maxalliy xom ashyolar asosida shamotli o'tga chidamli g'isht olishning loybaratoriya tajriba reglamentini yaratish" topshiriq qilib berildi.

Maqsadimiz maxalliy xom ashyo asosida o'tga chidamli olovbardosh g'isht olishimiz kerak. Bu g'ishtni olish jarayonida men olovbardosh g'ishtlar to'g'risida dastlab adabiyotlardan foydalanib g'isht to'g'risidagi malumotlarga ega bo'ldim. Bu malumotlarga asosan kimyoviy tarkibdagi elementlar soniga ko'ra 7 ta turdagi olovbardosh materiallar olish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Men o'z tadqiqot ishimda maxalliy xom ashyoga asoslanib shamotli o'tga chidamli maxsulotlarni tadqiqot yani o'rganishim, o'tga chidamli maxsulotni olishim va uning keramik texnik ko'rsatkichlarni o'rganishim kerak bo'ladi.

Bu ishni amalga oshirishim uchun men Chilpik kaolinidan foydalanishni va olingan maxsulotlar laboratoriya sharoitida pishirishni va bu pishgan maxsulotlarni keramik texnologik xolatlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ydim.

Chilpik kaolini boyitilgan va boyitilmagan tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-Jadval, Chilpik kaolinini kimyoviy tarkib

Kvarts kaolinli jisning tarkibidagi oksidlar miqdori %

